



## HOZIRGI KUNDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA ELEKTRON TIJORATNING O'RNI

**Muslimov Otabek Olimovich**

*"Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot" kafedrası*

*Toshkent moliya instituti*

**Annotatsiya:** *Maqolada raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyat ilmiynazariy yoritilgan.*

*Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshirilishi, Raqamli iqtisodiyot shakllari talqin qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *raqamli iqtisodiyot, elektoron hukumat, axborot, biznes, tadbirkorlik, elektoron tijoart, yalpi ichki mahsulot, yagona darcha, ilmiytexnik ommalashuv, integratsiya.*

### KIRISH

Insoniyat boshiga kelgan pandemiya sinovlari uning ijtimoiy, iqtisodiy, intellektual hayotida keskin o'zgarishlar sodir etdi. Xususan, ta'lim, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy aloqlarni to'liq onlayin platformalarga ommaviy o'tilishiga olib keldi.

Jumladan, O'zbekistonda ham –Raqamli O'zbekiston-2030|| dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishiga sabab bo'ldi deya ayta olamiz. Bu, eng avvalo, asosiy maqsad puxta va mukammal tashkiliyhuquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining uzviy hamkorligini ta'minlashdan iborat bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev tomonidan barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, mamlakatda –axborotlashgan jamiyat" muhitini yaratish vazifasi ustuvor qilib qo'yildi.

Chunki, endi raqamli texnologiyalarning uzoq vaqt davomida taraqqiy etishi iqtisodiy rivojlanish tedensiyalarini belgilaydi va jamiyatni tub o'zgarishlarga, integratsion taraqqiy etishiga olib keladi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish ko'pgina mamlakatlar uchun ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralib, masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi yetakchi mamlakatlar buning namunasidir.

Mazkur mamlakatlar qoida tariqasida –raqamli rivojlanish kun tartibi||ni amalga oshirishning uzoq davri va ustuvorliklarning uzluksizligi – asosiy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini barpo etishdan to muvofiqlashtirilgan infratuzilmani shakllantirishgacha bo'lgan davri bilan tavsiflanadi.



Bu sohadagi siyosat va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni qo'llab-quvvatlash dasturlari yanada jadal suratlarda yangi bosqichlarga o'tib bormoqda.

Shu bois Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari dasturida ham prezidentimiz tomonidan raqamlashtirish islohotlari olg'a surilgan. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida –2020 yil – Ilm- ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili|| deb e'lon qilgani ham bejiz emas edi.

Ta'kidlash joizki, ushbu murojaatnomadan keyin aholimizda –raqamli iqtisodiyot|| atamasi haqida ko'plab savollar tug'ila boshladi.

Shunday bo'lsa-da, ba'zi birovlardan –raqamli iqtisodiyot nima?||, deb so'rasang aniq va ishonch bilan tahliliy javob aytolmagan hollar ham uchramoqda.

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Dastlab, 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte –raqamli iqtisodiyot|| terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo'llamoqda. 2016 yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma'ruza e'lon qildi –Raqamli dividendlar|| haqida

Raqamli iqtisodiyot amalda: masalan, xaridorga poyafzal kerak. Uni bozorga tushib o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisod sanaladi. Telegramdagi biron savdo boti orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olish – raqamli iqtisodiyot deyiladi. Bu masalani eng sodda maishiy misol orqali tushuntirishdir. Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanib kelmoqdamiz. Xususan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lov orqali kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lov amalga oshiramiz, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul o'tkazamiz, taomlarga o'tirgan joyda buyurtma beramiz va hokazo.

Raqamli iqtisodiyotni ilmiy jihatdan tavsiflasak – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas, yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish hamda ularni kundalik hayotga joriy etishdir. Bu esa, mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir.

Belgilari:

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;
- ma'lumotlar elektron bazalari;
- CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi;



- korporativ tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Raqamli platformalarning rivojlanish sohasidagi yorqin misolni –Alibaba|| elektron savdo tizimiga ega bo'lgan Xitoy kompaniyasini keltirib o'tish mumkin. Undan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar to'plash jarayonida iqtisodiyotning turli sektorlariga ekspansiya uchun o'ta raqobatli ustunliklar yaratiladi. –Alibaba|| bu – oddiygina raqamli platforma emas, balki platformalar ekotizimidir.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va –qora iqtisodiyot|| ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliliigi yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada –iflos pullarni|| yuvish, mablag'larni o'g'irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko'rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag'lar oqimini oshiradi, soliqlar o'z vaqtida va to'g'ri to'lanadi, byudjet taqsimoti ochiq bo'ladi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar o'g'irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq yetib boradi. Raqamli iqtisodiyot fani haqida O'zbekiston ta'lim tizimida ham bir qator o'quv-qo'llanmalar, darsliklar va turli adabiyotlar yaratilgan bo'lib, xususan, S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullaev, G.R. Baltabaeva –Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari|| o'quv qo'llanmasini yozganlar (S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullaev, G.R. Baltabaeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, –Iqtisod-Moliya|| nashriyoti, 2019, 447 bet.)

Sakkiz bob, 443 sahifadan iborat mazkur qo'llanma hozirgi paytda tezkorlik bilan rivojlanayotgan va bir qancha shov-shuvlarga sabab bo'layotgan raqamli iqtisodiyot sohasiga va uning infratuzilmasini tavsiflashga bag'ishlangan. Unda raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan muammolar bilan bog'liq masalalar, raqamli iqtisodiyotga o'tish mexanizmi, kriptografiyaning muhim elementi bo'lgan xeshlashtirish funksiyalari haqida bir qancha ma'lumotlar berilgan. Undan so'ng, kriptografiyadan raqamli valyutalarga o'tish mantiqi, kriptovalyutalarning asosiy turlari va ularning xossalari bayon etilgan. Turli hildagi loyihalarga investitsiyalar jalb qilish uchun ishlatiladigan ISO haqida tushuncha va uning mohiyati ko'rsatilgan. O'quv qo'llanma oxirida kriptovalyutalar bo'yicha bir qancha savollarga javoblar va glossariy berilganki, ular yordamida bu sohani yanada chuqurroq o'rganish mumkin bo'ladi. Qo'llanma oliy ta'limning bakalavr va magistr mutahassisliklarida ta'lim olayotgan talabalarga tavsiya etilib, shu yo'nalishda tadqiqot ishlari olib borayotgan bank-moliya va ilmiy xodimlarga hamda kriptovalyuta sohasidagi innovatsiyalar bilan qiziqqan barcha tadbirkorlik sub'ektlari foydalanishi uchun mo'ljallangan.



–O‘zbekistonda rivojlantirish istiqbollari va jahon amaliyoti. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari|| (– Toshkent: Binzes va tadbirkorlik oliy maktabi 2020. – 979 b.||) chop etilgan bo‘lib, –O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini –Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili||da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiyalashuv sharoitida korporativ va loyihaviy boshqaruv, biznes strategiyalari va modellari, tadbirkorlik ko‘nikmalari, kambag‘allikni qisqartirish, elektron tijorat va marketing masalalari bo‘yicha yangi fikr va tajriba almashish borasida ilmiy maqolalar yoritilgan. Shu bilan birga, yoshlarning ilm-fanga bo‘lgan intilishlari va g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida 2020 yil 24 dekabr kuni –Raqamli iqtisodiyot: O‘zbekistonda rivojlantirish istiqbollari va jahon amaliyoti|| xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyaga kelib tushgan ma‘ruza tezislari jamlangan. Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo‘nalishlar ochib beradi. –Raqamli texnologiyalar|| tomon burilishga butun jahon internet tarmog‘i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo‘ldi.

Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davridadir. –Raqamli iqtisodiyot|| atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o‘zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” uch jildli monografiyasini chop etgan. Hozirgi vaqtga kelib, raqamli iqtisodiyot nazariyasi to‘laligicha hali shakllanmagan va ko‘pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon –Yangi raqamli iqtisodiyoti|| turli atamalar bilan nomlanadi. Masalan, –Postindustrial iqtisodiyot|| (D.Bell), –Axborotlashgan iqtisodiyot|| (O.Toffler), –Megaiqtisodiyot|| (V.Kuvaldin), –Axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot|| (I.Niiniluto), –Texnoiqtisodiyot yoki raqamli 9 iqtisodiyot|| (B.Geyts), –bilimlarga asoslangan iqtisodiyot|| (D.Tapskott). Ushbu tushunchalarni bog‘lab turadigan omil – bu iqtisodiy jarayonlarning globallashtirish jarayonida axborot texnologiyalarining birlamchi o‘rinni egallashi bo‘lib hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot haqida so‘z borar ekan, axborotlashgan jamiyatga ta‘rif berib o‘tish o‘rinlidir. Axborotlashgan jamiyat deb, unda faoliyat yuritayotgan kishilarning ko‘p qismi axborotni, ayniqsa, uning eng oliy shakli bo‘lgan bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan band bo‘lgan jamiyatga aytiladi. Jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining bu bosqichiga jamiyat hayotida axborot, bilim va axborot texnologiyalari ahamiyatining yanada oshishi xosdir. Raqamli iqtisodiyot ustivor bo‘lgan axborotlashgan jamiyatga ta‘rif berishda iqtisodchilar turli texnologik, iqtisodiy, mehnat, fazoviy, iste‘mol va kreativ mezonlardan foydalanadilar.



Ba'zilar raqamli iqtisodiyot nega kerak va nima beradi, deb o'ylashi mumkin. Raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish masalalarini yoki kriptovalyutalarni tushunish kerak emas. Albatta, Blokcheyn texnologiyasi, kriptovalyutalar ham raqamli iqtisodiyotning bir bo'lagi. Lekin raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) deganda, raqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi. Bunda, yashirin iqtisodiyotga barham berish vositasi sifatida ham qarash mumkin. Chunki birinchidan, barcha operatsiyalar elektron ro'yxatdan o'tilishiga, ikkinchidan shaffof bo'lishiga erishiladi. Qolaversa, ishlab chiqarishda yangi IT texnologiyalar qo'llanilishi tufayli mahsulot va xizmatlarning tannarxi pasayadi. Raqamli iqtisodiyotning o'z valyutasi (kriptovalyuta, bitkoin), pul saqlaydigan karmoni (blokcheyn), hisoblash usullari (mayning) kabi terminlari mavjud. Mazkur dasturlar haqida yanada batafsil ilmiy tadqiqotlar olib borish bugunning dolzarb masalasi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xizmati ma'lumotlariga ko'ra, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishida va muammoin hal qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmogda.

Xususan, Internet tarmog'iga ulanishning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati 1 200 Gbit/s.ni tashkil etib, kommutatsiya markazi orqali 750 Gbit/s tezlikda Internet tarmog'iga chiqish imkoniyati yaratildi va tarmoqning yuklanish darajasi 76,6 foizni tashkil etmogda. 2020 yilning 1 yanvaridan operator va provayderlarga Internet xizmatlari uchun tarif 2021 yilga nisbatan 34 foizga arzonlashtirilib, 1 Mbit/s uchun 56,0 ming so'mni tashkil etdi. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni bugungi kunda 22 mln. dan ortdi, shundan, mobil Internet foydalanuvchilari soni 19 mln.ni tashkil etadi. Respublika bo'yicha 237 ta ob'ektda magistral telekommunikatsiya tarmoqlari kengaytirilib, telekommunikatsiya uskunalari modernizatsiya qilinib, magistral telekommunikatsiya tarmoqlari o'tkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 200 Gbit/s.ga, tumanlararo darajada esa 40 Gbit/s.ga yetkazildi. Ijobiy natijalar bor, biroq bu yetarli degani emas.

Zero, raqamli iqtisodiyot aql bovar qilmas katta hajmda raqamli ma'lumotlarni to'plashda davom etmogda. 2022 yilda global IP trafik hajmi 150 700 Gbit/s(solishtirish uchun 2017 yil 45 000 Gbit/s) chiqishi kutilayotgani davrdan ortda qolmaslikka chaqiradi(1-jadval).

Raqamli biznes bu – jismoniy va raqamli dunyolarni birlashtiradigan yangi biznes-modellar paydo bo'lishidir. G'arbda School of Management raqamli o'zgarishni –Korxonalar qiymati va unumdorligini tubdan oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish|| Raqamli biznes bu – jismoniy va raqamli dunyolarni birlashtiradigan yangi biznes-modellar paydo bo'lishidir. G'arbda School of Management raqamli o'zgarishni –Korxonalar qiymati va unumdorligini tubdan oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish” sifatida ta'riflaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, smartfonlar bozori, internetga keng polosali ulanish, mashinali o'qitish



texnologiyalari va sun'iy intellektning —portlab|| o'sishi kompaniyalar faoliyat yuritayotgan dunyoni o'zgartirib yuboradi. Ular yoki yangi bozordagi bo'sh joylarni egallashlari yoki mavjud bo'sh o'rinlarni o'zgartirgan holda, o'zlarini o'zgarishlarga moslab olishi lozim bo'ladi. Shunday bo'lib chiqadiki, tashkilotlarning 22 raqamli o'zgartirish bu – yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi va butun dunyo bo'ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi.

Raqamli o'zgartirish turli darajalarga erishib, ular o'rtasidagi farq ikkita atama – —raqamli ko'rinishga keltirish|| va —raqamlashtirish|| o'rtasidagi farq bilan bir xil ma'noga ega bo'ladi. Raqamli ko'rinishga keltirish bu – axborotni jismoniy vositalardan raqamli vositalarga o'tkazishdir. Raqamli ko'rinishga keltirishga misollar – elektron kitoblar, videokurslar, suratning raqamli nusxasini yaratish va boshqalar. Bunda axborot strukturasi o'zgarishi ro'y bermaydi: u faqat elektron shaklga ega bo'ladi, xolos.

Raqamli ko'rinishga keltirish ko'pincha mavjud biznes-modelni takomillashtirish va biznes-jarayonlarni optimallashtirish uchun foydalaniladi. Raqamlashtirish esa – raqamli shaklda bo'lgan butunlay yangi mahsulotlar yaratishdir. Masalan, multiplikatsiyali dinamik o'quv kursi yoki hujjatni sharhlashning interaktiv tizimi – bu raqamlashtirishdir. Raqamlashtirish asosida yaratilgan mahsulotni uning sifatini jiddiy yo'qotmasdan turib, texnik vositalarga o'tkazishning imkoni yo'q, shu sababli raqamlashtirish, raqamli ko'rinishga keltirishdan farqli ravishda, biznesga sezirarli darajada keskin rivojlanish va yangi raqobatli ustunliklar qo'lga kiritishga imkon beradi.

Prezident Sh.Mirziyov ta'kidlaganidek, —Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi||.

Ayni paytda Click, Payme, M-bank, Upay, Oson va boshqa onlayn to'lovlarga imkon beruvchi to'lov tizimlari mavjud bo'lishiga qaramay mobil to'lovlar, internet, kommunal to'lovlar uchun onlayn to'lovlarni amalga oshirish ko'rsatkichi yuqori emas. O'tgan davr misolida aytsak, 2017 yilda 34 foiz hisob egalari raqamli to'lovni amalga oshirgan. Solishtirish uchun bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 96 foizga teng. E'tiborlisi, terminal orqali to'lovlar son oshib bormoqda. Masalan, 2018 yilda terminal orqali to'lovlar 53 trillion so'mni tashkil etgan

Raqamli iqtisodiyot atamasi ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o'ziga xos nazariya bo'lib, uning o'rganish ob'ekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish sohasida vakolatli organ



hisoblanadi. Bundan tashqari Iqtisodiyot, Moliya, Axborot texnologiyalari, Adliya vazirliklari va boshqa qator davlat tuzilmalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun o'ziga xos mas'uliyat va vazifalarga ega.

Raqamli iqtisodiyot hosil qiladigan effektlarni to'liq sanab o'tish ancha murakkab ish, binobarin, elektron servislar va metama'lumotlardan foydalanish imkoniyati iqtisodiy ob'ektlarga taqdim etadigan aloqalarni to'laqonli tarzda baholash ancha mushkuldir. Shu bois axborotlashtirishga sarflanadigan investitsiyalarning muhimligini, ayniqsa davlat darajasida asoslash bir qadar qiyin vazifa hisoblanadi. U yoki bu sohada yaratilgan gigibayt axborotni real holatda har doim ham hisoblab chiqishning imkonsizligi o'z-o'zidan tushunarli hodisadir.

#### REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018 yilning
2. iyulida «O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3832 son qarori S.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli –Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida||gi Farmoni.